

## RIVOJLANISHIDA NUQSONI BO'LGAN MAKTABGACHA TARBIYA YOSHIDAGI BOLALARGA TA'LIM TARBIYA BERISH TAMOYILLARI



**Ashurova S.**

Shahrisabz davlat pedagogika instituti magistri

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada rivojlanishida nuqsoni bo'lgan maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarga ta'lim tarbiya berishdagi asosiy tamoyillari yoritib berilgan.

**Kalit so'zlar:** tamoyil, nuqsonli bola, ilmiylik, tushunarlik, analitik, onglilik, genetik.

**R**ivojlanishida nuqsoni bo'lgan maktabgacha yoshdagi bolalarni o'qitishda quyidagi tamoyillarga asoslanadi: ta'lim tarbiyaning ilmiyligi va izchilligi, tushunarlikligi, ko'rgazmaliligi, bilim olishda faollik va mustaqillik, bolalarning yosh va alohida xususiyatlarini hisobga olish, ta'limni hayot bilan bog'liqliligi. Ta'lim tarbiya tamoyillariga asoslangan holda ta'limning mazmuni, metodlari, tashkil etish shakllari tanlanib, uning samaradorligini oshirishga yo'naltiriladi. Ilmiylik va tushunarlik tamoyili. Maktabgacha muassasa tarbiyalanuvchilariga ularning idrok etish qobiliyatlarini hisobga olgan holda ilmiy asoslangan ma'lumotlar berib boriladi. Dasturdagi o'quv material mavzularga ajratiladi, mavzularning mazmuni yildan yilga kengayib, chuqurlashtirilib, aniqlashtirilib boriladi va uni o'zlashtirish uchun bolalardan aqliy faollik talab etiladi. Dastur materiallarida ilmiylik bilan tushunarlik tamoyillarining uyg'unlashuvi, bolalarning o'qishga bo'lgan qiziqishini uyg'onishiga, mantiqiy tafakkuri, taqil qilish, sintezlash, umumlashtirish, solishtirish, abstraksiyalash kabi psixik jarayonlarining takomillashuviga xizmat qiladi. 4-5 yoshli bolalarni analitik o'qishga o'rgatish maqsadida so'zli nutqning daktil, og'zaki, yozma shakllari qo'llaniladi.

Ko'rgazmalilik tamoyili rivojlanishida nuqsoni bo'lgan maktabgacha yoshdagi bolalarni tarbiyadashda muhim ahamiyat kasb etadi, zero bolalarning ko'rgazmali-obrazli tafakkurini o'sishiga yordam beradi, bilimlarni ongli ravishda o'zlashtirilishini ta'minlaydi. Mashg'ulotlarda, turli faoliyatlar jarayonida tarbiyalanuvchilar buyumlarni ko'zdan kechiradi, taqqoslaydi, o'xshash va farqli tomonlarini aniqlaydi, sifat va hossalarni bilib oladi, buyumlarning turli belgilariga asoslanib guruhlariga ajratadilar. Elementar matematik tasavvurlarni shakllantirish mashg'ulotlarida bolalarning son, sanoq, kattalik, shakl, vaqt, fazoviy munosabatlar haqidagi tushunchalarini shakllantirish uchun turli rasm, buyumlar, tarqatma material, kompyuter, texnika vositalardan keng foydalaniladi. Ko'rgazmalilik tamoyili bolalarning amaliy faoliyatida ro'yobga chiqariladi: ular jonli obyektlarni kuzatadilar, buyum va rasmlarni ko'zdan kechiradilar, model chizmalardan foydalanadilar, diafilm, kinofilmlarni tomosha qiladilar, musiqani tinglaydilar, visual apparaturadan foydalanadilar.

Onglilik va faollik tamoyili. Defektolog o'z faoliyatida bolalarning bilish qobiliyatlarini faollashtiruvchi usullarni qo'llashi kerak bo'ladi. Bola mashg'ulotlarda qo'yilgan bilish vazifalarni amaliy faoliyatida yechmoqi zarur. Tarbiyalanuvchilarning bilish faolligini oshirish maqsadida "Sen nima uchun shunday o'ylaysan", "Sen qanday bilding", "Nima uchun" kabi savollar qo'yish maqsadga muvofiq. Turli faoliyatlarni tashkil etish chog'ida bolalarning mustaqilligi va faolligini oshirib borib, ta'limning sifat va samaradorligini oshirilishi hamda bolaning har tomonlama rivojlanishiga erishiladi. Muntazamlilik va izchillik tamoyili. Maktabgacha ta'lim jarayonida atrofdagi narsalar, tabiat hodisalari, ijtimoiy hayot voqealari to'qrisidagi ma'lumotlar berib boriladi. Ko'p marotaba o'tkazilgan kuzatishlar, amaliy faoliyat jarayonida umumlashgan tasavvur va tushunchalar shakllanib boradi. Barcha bo'limlar bo'yicha o'quv dastur konsentrik tuzilgan bo'lib, har yili o'quv material chuqurlashtirilgan va kengaytirilgan holda takrorlanib boradi. Defektolog va defektolog o'quv materialni asta-sekin murakkablashib borishini ta'minlab taqsimlaydilar.

Muntazamlilik va izchillik tamoyiliga amal qilgan holda bilimlar puxta o'zlashtirilishi ta'minlanadi. Hayot bilan bog'liqlik tamoyili. Olingan bilim, ko'nikma va malakalar bolalarning amaliy faoliyatida ro'yobga chiqariladi. Tarbiyalanuvchilarning o'yin, mehnat, o'quv faoliyati

davomida keyinchalik hayotida zarur bo'ladigan bilim, malaka va ko'nikmalar hosil bo'ladi. Tevarak atrof bilan tanishtirish jarayonida jamiyatimiz hayoti haqida oddiy tushunchalar, sayr-sayohat davomida olingan bilim va malakalar mehnat va o'yin faoliyatlarda mustahkamlanadi. Masalan, bolalar kattalar mehnati bilan tanishtiriladi, mehnatga ijobiy munosbat tarbiyalanadi, olingan bilimlar kattalarning faoliyati, o'zaro munosabatini aks ettiruvchi syujetli-rolli o'yinlarda, nutqiy muloqotida mustaqkamlanadi. Umumiy didaktik tamoyillardan tashqari, maktabgacha tarbiya yoshidagi rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalarning o'ziga xos xususiyatlarini, korreksion-ta'limning mazmunini hisobga olgan holda ta'limning maxsus tamoyillari farqlanadi. (N.I.Belova, B.D.Korsunskaya, L.P.Noskova va x.k.).

1. Genetik tamoyil. Mazkur tamoyil rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalar ta'lim-tarbiyasida psixik funksiyalarning rivojlanish bosqichlarini, psixik rivojlanish qonuniyatlarini, hamda senzitiv davrlarni hisobga olgan holda samarali ta'limni tashkil etishga yordam beradi.

2. Nutqiy muloqotni rivojlantirish tamoyili. Bolalarning nutqi muloqot vositasi sifatida shakllantiriladi. Bolalarning nutqi mashg'ulotlarda, kun davomida ularning amaliy faoliyat jarayonida shakllantiriladi. Bolalarda nutqiy muloqot qilish ehtiyoji tarbiyalanadi, o'z hoxish-istaklarini so'zli nutq vositasida bayon etishga o'rgatib boriladi. Dasturda bolalar egallashi lozim bo'lgan lug'at boyligi belgilanadi. Maxsus maktabgacha muassasalarda so'zli nutqning uch shakli, ya'ni og'zaki, yozma, daktil nutq qo'llaniladi. Yozma nutq o'qish va yozish jarayonida ishlatiladi, dastlabki ma'lumotlar bolalarga yozma ravishda (yozuvli kartochoqlarda) beriladi. So'z tarkibi va tuzilishini o'zlashtirish, o'qishni o'rgatish jarayonini tezlashtirish, muloqotni osonlashtirish maqsadida yordamchi vosita etib daktil nutqdan foydalaniladi. Og'zaki nutq maktabgacha ta'limning yakunida, mashg'ulotlarda asosiy muloqot vositasi bo'lib qolishi kerak. Nutqiy muloqotni rivojlantirish tamoyili korreksion-tarbiyaviy ish davomida ro'yobga chiqariladi, dastur talablarida, ayniqsa nutq o'stirish bo'limida o'z aksini topadi.

3. Ta'limning rivojlantiruvchi xarakteriga ega bo'lishi. Mazkur tamoyil L.S.Vigotskiyning "yaqin rivojlanish zonasini hisobga olish" g'oyasiga asoslanadi. Bolaning sog'lom funksiyalariga asoslangan holda, yoshiga mos psixik rivojlanishni ta'minlash korreksion ishning mazmuni hisoblanadi. Rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bola rivojlanishining o'ziga hosligi, ayrim bilimlarni mustaqil egallab ololmasligi, ota-onalar tomonidan yetarli e'tibor berilmayotgani oqibatida, bolaning psixik rivojlanish saviyasi me'yordan orqada qolishi mumkin. Maktabgacha muassasasida bolaning barcha imkoniyatlarining ro'yobga chiqarilishiga shart-sharoitlar yaratilishi lozim. Pedagoglar bolaning imkoniyatlari, "yaqin rivojlanish zonasini" aniqlab, uning uyg'un rivojlanishini ta'minlashi lozim.

4. Ta'lim-tarbiyaning korreksion yo'naltirilganligi. Ta'limning yetakchi tamoyillaridan biri bo'lib, korreksion ta'limning barcha jabhalarini qamrab oladi. Bolalar nuqsonining tuzilishi va murakkabligi, ularning aloqida xususiyatlari va imkoniyatlari aniqlanib, har bir tarbiyalanuvchiga alohida differensial yondashiladi. Rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalar rivojlanishining o'ziga hosligi, nutqiy rivojlanishidagi yetishmovchiliklar va muloqotning cheklanishi sistematik korreksion ishning olib borilishini talab etadi. Korreksion ta'limning mazmuniga nutq o'stirish, eshitish qobiliyatini rivojlantirish va talaffuzni shakllantirish kabi maxsus korreksion yo'naltirilgan bo'limlar kiritiladi. Kun tartibida har kuni 2 soat alohida mashg'ulotlarga ajratiladi. Yalpi mashg'ulotlarda bolalar uchun, nutqiy malakalari, labdan o'qish hamda eshitish qobiliyatini hisobga olgan holda turli murakkablikdagi topshiriqlar beriladi. Jamoa bo'lib ishlatiladigan hamda individual qo'llaniladigan eshituv moslamalardan keng foydalaniladi. Ovozni kuchaytiruvchi apparatlar vositasida nutqni qabul qilish malakalarini rivojlantiriladi, og'zaki nutq sifatini yaxshilanadi, tovushlar olamini o'rganishga imkoniyatini kengaytiradi.

5. Ta'limni turli faoliyatlar davomida amalga oshirish tamoyili.

Bolaning psixik rivojlanishi turli faoliyatlarda kechadi. Faoliyatlar jarayonida bola borliqni o'rganadi, atrof muhitda mo'ljal olish usullarini o'rganadi, ijtimoiy hayotni bilib oladi, insonlar munosabatlarini o'zlashtirib boradi. Psixikaning rivojlanishi yetakchi faoliyat bilan bog'liq bo'ladi, faoliyat davomida psixik jarayonlar va shaxsiy xususiyatlar shakllanadi (A.N.Leontev). Ilk va maktabgacha yoshdagi bolalarning rivojlanishi buyumli, o'yin, tasviriy, konstruktorlik, oddiy



mehnat faoliyati bilan bog'liqdir. Dasturning turli bo'limlarida umumrivojlantiruvchi va korreksion vazifalar turli faoliyatlar bilan bog'langan holda amalga oshiriladi. Nutqning shakllanishida faoliyatli yondashuv katta ahamiyatga ega. (S.A.Zikov, B.D.Korsunskaya, L.P.Noskova) O'yin va boshqa faoliyatlarda nutqiy vositalarni qo'llash, nutqni tushunish uchun tabiiy shart-sharoitlar yaratiladi.

6. Nuqsonning tuzilishi va murakkabligini hisobga olish tamoyili.

Kar va zaif eshituvchi bolalar eshituv holati, nutqi, aqliy rivojlanishi jihatdan har xil bo'ladilar. Ularning ta'lim-tarbiyasini tashkil etishda nuqsonning tuzilishini hisobga olish zarur. Differensial tamoyilga muvofiq kar va zaif eshituvchi bolalarga nutq o'stirish, eshituv qobiliyatini rivojlantirish, talaffuzga o'rgatish bo'yicha turli talablarni ettirgan dasturlar qo'llaniladi. Kar va zaif eshituvchi bolalar guruhlari nutqiy holatga ko'ra ikkiga bo'linadi. Bolalarning aqliy rivojlanish darajasi, qo'shimcha murakkab kamchiliklar (psixik rivojlanishining sustlashuvi, aqliy zaiflik, xulq-atvordagi buzilishlar va b.) ularning ta'limiga differensial yondashuvni talab betadi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlari:**

1.P.M.Pulatova. Maxsus pedagogika (Oligofrenopedagogika). – T.: G'ofur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2005.

2.M.U.Xamidova. Maxsus pedagogika (Mutaxassislikka kirish). -T.: Fan va texnologiya, 2018.